


**Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

**“Veterinariya va chorvachilik fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha**

<b>№</b>	<b>Amaliy loyiha mavzusi</b>	<b>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</b>
	<p>Hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, tarkibida ozuqa birligi, protein miqdori yuqori yangi beda navlarini yaratish va original urug‘larini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish</p> 	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Amaliy.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bedaning noyob belgilarga ega nav namunalari xorijiy davlatlardan introduksiya qilinadi;</li> <li>- beda genofondidagi noyob belgilarga ega namunalarni seleksiya jarayoniga jalb yetiladi;</li> <li>- bedaning yangi, istiqbolli va ro‘yxatdan o‘tgan, yuqori hosildor navlarining urug‘larini ko‘paytirish uslublarini ishlab chiqiladi;</li> <li>- hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, tarkibida ozuqa birligi, protein miqdori yuqori yangi beda navlarini yaratish va original urug‘larini yetishtirishni yo‘lga qo‘yiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p><b>Izoh:</b> Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>